O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI G‘IJDUVON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

200500, G‘ijduvon tumani, Mustaqillik maydoni 2-uy. Tel: (365) 572-12-35, faks: (365) 572-13-33, e-mail: gijduvon_th@umail.uz

2022 - yil 21 - dekabr 558-2-34-Q/22 G‘ijduvon tuman hokimligi

Tumanda dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalariga muvofiq, tuman hududida dam olish kunlari yarmarkalarini tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Tolibov, F.Jabborov) oziq-ovqat xavfsizligini hamda narxlarni barqaror saqlanishini ta’minlash maqsadida tumandagi dehqon bozorida har shanba va yakshanba kunlari soat 07:00 dan 17:00 gacha yarmarkalar tashkil etilsin.

3. Yarmarkalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi;

yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. “G‘ijduvon dehqon bozori” AJ (U.Tuyev)ga:

yarmarkalar tashkil etish uchun bozorning aholi uchun qulay bo‘lgan

qismidan, bozorning umumiy savdo maydonining 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini;

yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va bozorning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olinsin.

5. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.O‘roqov), har yakshanba kunlari yarmarkalar tashkil etish uchun joy ajratilganligini, o‘tkazilayotganligini hamda yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini hamda yarmarkalarda tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6. Tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtalik markazi (A.Jalolov), tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi (E.Majidov) yarmarkalarda sotilayotgan mahsulotlarning turlariga qarab joylashtirish va ular sifatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7. Tuman Ichki ishlar boshqarmasi boshlig’i (A.Xoliqov) bozor hududida yarmarkalar o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Tolibov, F.Jabborov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Ashurov**